

SHUKUROVA ZILOLA YUSUFOVNA

“QISASI RABG‘UZIY”
ASARI TAHLILI VA
MATNIY TADQIQI



monografiya

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

SHUKUROVA ZILOLA YUSUFOVNA

**“QISASI RABG‘UZIIY” ASARI
TAHLILI VA MATNIY
TADQIQI**

monografiya

**«Yashil yoprog nashr-matbaa uyi»
Toshkent – 2021**

UO'K 821.512.133.09-1
KBK 83.3(50')

Shukurova, Zilola

«Qisasi Rabg'uziy» asari tahlili va matnii tadqiqi: monografiya /
Z. Shukurova; mas'ul muharrir H.Homidov; – Toshkent: «Yashil yarpaq
nashr-matbaa uyi» nashriyoti, 2021. – 136 b.

Mas'ul muharrir:

Hamidjon Homidov,

filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Matluba Jabborova,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi

Jasurbek Mahmudov,

filologiya fanlari nomzodi

XIV asrda yaratilgan mumtoz adabiyot namunasi bo'lgan Nosiruddin Rabg'uziyning «Qisasi Rabg'uziy» asarini o'qish, o'rganish, tadqiq etish masalasi bugungi kunda adabiyotshunos va tilshunos olimlarning oldida turgan masalalardan biri.

Mazkur monografiyada "Qisasi Rabg'uziy" asari matnii tadqiqotiga bag'ishlanganligi bilan birga adabiyotshunoslik, folklorshunoslik nuqtai nazaridan ham tahlilga tortilgan. Undan filologiya yo'nalishidagi talabalar hamda shu sohada ilmiy tadqiqot olib borayotgan izlanuvchilar foydalanishi mumkin.

Mazkur monografiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-texnikaviy kengashining 2021-yil 29-noyabrda 8-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

ISBN 978-9943-7764-2-5

© Z.Shukurova, 2021.

© «Yashil yarpaq nashr-matbaa uyi», 2021.

KIRISH

Ma'lumki, yurtimiz mustaqillikka erishgach, xalqimizning milliy o'zligi va ma'naviy ildizlarining asosi bo'lgan xalq og'zaki ijodini o'rganishga bo'lgan e'tibor har qachongidan ham kuchaydi. Chunki xalqimizning ko'p asrlar davomida qaror topgan umummilliy qadriyatlarini tiklashda adabiyot eng asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Zero, «Yoshlar o'rtasida mamlakatimiz boy tarixini, uning betakror madaniyatini va milliy qadriyatlarini keng targ'ib etish, jahon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini yetkazish uchun zarur muhit va shart-sharoit yaratish zarur»¹. Demak, axborot oqimi shiddat bilan kirib kelayotgan XXI asrda shonli tariximiz aks etgan qadimiy qo'lyozmalarimizni asrab-avaylash, ajdodlarimiz yaratgan nomoddiy merosni avaylash, bu yodgorliklarning inson ma'naviy kamolotidagi o'rnini ochib berish hamda uni kelajak avlodga yetkazish soha fidoyilari oldida turgan muhim vazifalardir. Jumladan, XIV asrda yashagan Nosiruddin Rabg'uziyning diniy manbalar, adabiyot hamda folklor an'analari uyg'unligida yaratilgan «Qisasi Rabg'uziy» asarini din-adabiyot-folklor munosabati kontekstida tadqiq etish ana shunday muhim muammolardan biridir. Mazkur asarini adabiyotshunoslikning so'nggi yutuqlari asosida chuqur o'rganib, unda keltirilgan ayrim obrazlar va motivlarning genezisini aniqlash hamda muallifning xalq ijodidan foydalanishdagi asl maqsadini topish, nusxalarining ijodkor qalamidan yiroqlashish sababini aniqlash matnshunoslik

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий яқунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи. –Тошкент, 2017, 16 январь. – Б. 4.